



IJTIMOYIY TARMOQLARDA QISQA TIL KONTENTI ORQALI INGLIZ TILI KO'NIKMALARINI RIVOLANTIRISH (Tik Tok, YouTube Shorts, Instagram Reels).

Supervisor: Xaydarova Shoiraxaydarova qizi

Email: shoiraxaydarova@mail.ru

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Jizzax filiali filologiya yo'nalishi talabasi

Sanakulova Raxima Shavkat qizi

sanakulovalora@gmail.com

Telefon: +998884842401

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18153566>

ARTICLE INFO

Received: 31st December 2025

Accepted: 1st January 2026

Published: 5th January 2026

KEYWORDS

yashirin (ongsiz-implicit) o'rganish; statistik o'rganish; norasmiy til o'rganish; qisqa video platformalari; multimodal til kirishi

ABSTRACT

Bugungi kunda zamonaviy texnologiyalar bilan birgalikda ijtimoiy tarmoqlar (YouTube shorts, TikTok, Instagram reels) ham ayniqsa, o'quvchilar orasida juda mashhur bo'lib, jadal rivojlanib boryapti va ular tobora norasmiy til o'rganish resurslari sifatida e'tirof etilmoqda. Savol shundaki, faqatgina ijtimoiy tarmoqda boshlang'ich bilim bilan ikkinchi til kontentini kuzatish va eshitish orqali boshqa ko'nikmalarni rivojlantirish mumkinmi. Bu maqola shu savolga ilmiy nazariy javob taklif qiladi, hamda o'qituvchilar va mustaqil o'rganuvchilarga tavsiyalar beradi. Va Neyroshunoslik nuqtai nazaridan, qisqa ko'ngilochar videolarni davomiy, qayta-qayta ingliz tilida ko'rish ya'ni "yashirin" (implicit), orqali rivojlanishini tahlil qiladi.

Kirish.

O'quvchilar va yosh avlod ijtimoiy tarmoqlarga (TikTok, Shorts, Reels) ko'p vaqt sarflaydi; qisqa videolar orqali til kontentni tahlil qilish deganda o'quvchilarning TikTok, YouTube Shorts va Reels kabi platformalardan til o'rganish maqsadida foydalanish xatti-harakatlari va natijalari o'rganiladi: ular qanday videolarni tomosha qiladi, qayta-qayta ko'radi, taqlid qiladi, izoh qoldiradi, saqlaydi yoki o'z videolarini yaratib, tarmoqqa joylaydi va bular til bilish darajasiga qanday ta'sir o'tkazadi.

Asosiy qism:

Yashirin(implicit learning) o'rganish- ya'ni ongsiz va maqsadsiz ravishda tilni o'zi bilmagan holda o'rganish deya ta'riflanadi. Inson 90% ongsiz ravishda o'rganadi va qaror qiladi hayoti davomida, buning 5-10% i ongli ravishda hisoblanadi. Ya'ni o'quvchi boshqa o'rganyotgan tilida kontent ko'rishi e'tiborining deyarli barchasi kontentning mazmunida bo'ladi, ongsiz holda esa miyya tilning yangi qirralarini ochadi va o'rganadi. Tadqiqotlarga ko'ra kibersport bilan shug'ullanuvchilar ingliz(ikkinchi) til sifatida juda yaxshi rivojlanganini ko'rishimiz mumkin.

Yana bir misol qilib , yosh bolalar ham o'z tilini o'rganish davomida grammatika yoki mashqlar orqali o'rganib qolmaydi, balki shunchaki atrof muhitdagilar sabab shunchaki eshitish orqali o'rganishini guvohimiz. Bu tushuncha neyrobiologiya va kognitiv psixologiyada keng qo'llanadi.

Saffran va hamkasblari (1996) ishida chaqaloqlar qisqa muddatli audio ekspozitsiyadan soʻz chetlari (word segmentation)ni statistik xususiyatlarga asoslanib ajrata olgani koʻrsatildi: bu «statistical learning» mexanizmi tilni avtomatik (implicit) oʻrganish uchun muhim ekanligini koʻrsatadi.¹ Qisqa video kontentlar doimiy va takroriy stimulus bera olgani sababli, ular kattaroq yoshdagi oʻrganuvchilarda ham statistik va "implicit" oʻrganishni ragʻbatlantirishi mumkin.

Lekin aynan bu qisqa formatdagi video platformalarining qaysi xususiyatlari til oʻrganishda rivojlatirishiga sabab boʻlyapti, buning bir necha sabablari bor:

Qisqa video platformalarining asosiy xususiyati bu - videolarning qisqa (15 soniyadan 1 minut) boʻlishi va bir xil turdagi kontentning tez-tez takrorlanishidir. Algoritmlar foydalanuvchiga qiziqarli boʻlgan mavzudagi videolarni qayta-qayta koʻrsatadi. Bu holat statistik ekspozitsiya (statistical exposure) uchun juda muhim: foydalanuvchi bir xil soʻzlar, iboralar va grammatik tuzilmalarni ongli yodlashsiz, lekin koʻp marotaba koʻradi va eshitadi.

Natijada miya til birliklari orasidagi bogʻlanishlarni asta-sekin ongsiz ravishda mustahkamlaydi. Bu jarayon aynan "implicit learning" mexanizmi bilan mos keladi. Masalan, foydalanuvchi "POV", "literally", "you know", "I was like" kabi inglizcha iboralarni tushuntirishsiz ham toʻgʻri kontekstda tushuna boshlaydi. Kuzatuvlar natijasida, hattoki koʻp oʻquvchilar "past perfect" nimaligini ham bilmasligini lekin uni (pragmatik) qanday, qachon va qay vaqtda ishlatishni avtomatik tarzda bilishini taʼkidlashgan.

Qisqa videolarning yana bir muhim jihati - multimodal signal, yaʼni: ovoz (nutq, intonatsiya), yuz ifodalari va mimika, harakat va vaziyat, ekran matni yoki subtitrlar bir vaqtda ishlatiladi. Til oʻrganishda bu juda muhim, chunki: soʻz faqat eshitilmaydi, balki koʻriladi, his qilinadi va vaziyat bilan bogʻlanadi. Masalan, kimdir "I'm exhausted" deb aytayotganda charchagan holatda boʻlsa, foydalanuvchi bu soʻzning maʼnosini tarjimasiz ham tushunib oladi.

Shuni ham taʼkidlab oʻtish kerakki, qisqa video platformalarida kontent: qiziqarli, kontekstual, real hayotga yaqin, hissiy jihatdan boy boʻladi. Bu esa foydalanuvchining eʼtiborini uzoqroq ushlab turadi va motivatsiyani oshiradi. Motivatsiya oshganda esa: kuzatuv va tinglash koʻpayadi, takroriy koʻrish yuz beradi, tilga tabiiy ravishda koʻproq duch kelinadi. Bu jarayon maqsadsiz oʻrganish (incidental acquisition) uchun juda muhim, chunki foydalanuvchi: "men hozir ingliz tili oʻrganayapman" deb oʻylamaydi, lekin miya baribir til maʼlumotlarini qayta ishlaydi.

Qisqa video va multimodal kontent orqali til oʻrganish nazariy faraz emas, balki ilmiy tadqiqotlar bilan tasdiqlangan hodisadir. D'Ydewalle va uning hamkorlari olib borgan tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki: subtitrli videolarni tomosha qilish bolalar va kattalarda maqsadsiz (incidental) lugʻat oʻzlashtirishga olib keladi. Ayniqsa: ovoz va subtitr bir vaqtda berilganda, oʻrganish samaradorligi yuqoriroq boʻladi.²

Ammo tadqiqotchilar bir muhim shartni eslatib oʻtishadi: samaradorlik kontent sifati va foydalanuvchining faol ishtirokiga bogʻliq. faqat passiv kuzatish qilish kamroq foyda beradi, lekin izohlarni oʻqish va yozish, takror tomosha qilish, interaktiv kontent yuqori natija beradi.³

Qisqa video platformalarida (TikTok, Reels, Shorts) kontent tili ingliz tili qilib sozlanishi, va passiv emas aktiv olatda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish oʻquvchilarga, oʻqituvchilarga esa darsdan tashqari topshiriq sifatida 1-2 ta qisqa video tavsiya qilinib, darsda muhokama

¹ (Saffran, Aslin, & Newport, 1996).

² (Fievez, Montero Perez, Cornillie, & Desmet, 2020).

³ (Teng, 2022). Lee, (author), & (coauthors). (2025).

qilinishi hamda o'quvchiga "buni o'rgan" emas, balki "kuzat" yondashuvi qo'llanishi tavsiya etiladi.

Xulosa

Qisqa video formatlar — TikTok, YouTube Shorts, Instagram Reels — til o'rganishda kuchli qo'shimcha vosita bo'lishi mumkin: ular "implicit/statistical learning" uchun doimiy, multimodal va motivatsion ekspozitsiya yaratadi. Eng yaxshi natija esa multimodal subtitrlash, faol ishtirok (commenting, shadowing), va pedagogik integratsiya (blended learning) bilan amalga oshadi. Shu bilan birga, terapevtik yoki rasmiy akademik maqsadlarda ularni yagona vosita deb hisoblamaslik kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Saffran, J. R., Aslin, R. N., & Newport, E. L. (1996). Statistical learning by 8-month-old infants. *Science*, 274(5294), 1926–1928.
2. Fievez, I., Montero Perez, M., Cornillie, F., & Desmet, P. (2020). Vocabulary learning through viewing captioned or subtitled videos and the role of learner- and word-related factors. *CALICO Journal*, 37(3), 233–253.
3. Teng, M. F. (2022). Incidental L2 vocabulary learning from viewing captioned videos: Effects of learner-related factors. *System*, 105, Article 102736.
4. Fayzullayeva, U. (2023, March). NEW VIEWS IN UNDERSTANDING POSTMODERN PHILOSOPHY. In *Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities* (Vol. 2, No. 4, pp. 114-118).
5. Fayzullaeva, U., & Togaev, S. (2024). "POSTMODERNISM" ITS ORIGINS AND DEVELOPMENT. *SO'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 7(3), 19-22.
6. Tog'Ayev Sarvar Eshniyoz, O. G., & Fayzullayeva, U. (2023). Understanding Postmodernism: Postmodern Culture and Philosophy.
7. Fayzullaeva, U., & Togaev, S. (2024). A LITERARY PHENOMENON IN THE POSTMODERN ERA. *IJODKOR O'QITUVCHI*, 4(37), 146-148.